

## FARG‘ONA VILOYATINING XALQARO KREDIT REYTINGI VA UNING HUDUDIY RIVOJLANISHGA TA’SIRI

*Davlatov Saidbek Davlatovich*

*Farg‘ona Davlat Universiteti Iqtisodiyot fakulteti Buxgalteriya hisobi va moliya kafedrasida o‘qituvchisi. E-mail: [saiddavlatov1530@gmail.com](mailto:saiddavlatov1530@gmail.com)*

**Annotatsiya.** *Farg‘ona viloyatiga xalqaro reyting agentligi tomonidan berilgan kredit reytingi asosida hududiy moliyaviy barqarorlik, investitsiyaviy jozibadorlik va iqtisodiy rivojlanish omillari tahlil qilingan. Xalqaro kredit reytinglarining ahamiyati, ularning investitsiya muhitiga ta’siri hamda Farg‘ona viloyati iqtisodiyotining tarmoqlar bo‘yicha rivojlanish xususiyatlari o‘rganilgan. Tadqiqot natijalari hududning moliyaviy boshqaruv tizimi va investitsiya imkoniyatlari yuqori ekanligini ko‘rsatadi.*

**Kalit so‘zlar:** *xalqaro kredit reytingi, Fitch Ratings, moliyaviy barqarorlik, investitsiya muhiti, hududiy iqtisodiyot, Farg‘ona viloyati.*

### KIRISH.

Jahon iqtisodiyotida globallashtirish jarayonlarining jadallashtirishi, kapital harakatining erkinlashuvi, xalqaro moliya bozorlarining kengayishi hamda investitsiya oqimlari uchun davlatlar va hududlar o‘rtasidagi raqobatning kuchayishi moliyaviy barqarorlik va investitsiyaviy jozibadorlikni xalqaro mezonlar asosida baholash zaruratini yanada oshirmoqda. Bugungi sharoitda mamlakat yoki alohida hududning iqtisodiy salohiyati nafaqat ishlab chiqarish hajmi, tabiiy resurslari yoki aholi soni bilan, balki uning moliyaviy boshqaruv sifati, budjet intizomi, qarz majburiyatlarini bajarish qobiliyati, investitsiyalarni jalb etish imkoniyati va institutsional barqarorligi bilan ham belgilanadi. Shu sababli xalqaro reyting tizimlari davlatlar, hududlar, yirik shaharlar va korporativ tuzilmalar faoliyatini baholashda muhim axborot manbai sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Xalqaro kredit reytinglari moliyaviy bozor ishtirokchilari, investorlar, xalqaro moliya institutlari, tijorat banklari va davlat boshqaruvi organlari uchun muhim indikator hisoblanadi. Bunday reytinglar mamlakat yoki hududning qarz majburiyatlarini o‘z vaqtida va to‘liq bajarish qobiliyatini, moliyaviy siyosatining barqarorligini, budjet daromadlari va xarajatlari muvozanatini, iqtisodiy o‘sish salohiyatini, tashqi va ichki qarzlarni boshqarish darajasini, shuningdek, institutsional boshqaruv sifati baholash imkonini beradi. Shu jihatdan kredit reytingi oddiy baholash ko‘rsatkichi emas, balki hududning moliyaviy ishonchliligi, investitsiyaviy obro‘si va xalqaro moliya bozorlariga chiqish imkoniyatini ifodalovchi kompleks ko‘rsatkichdir.

Globallashtirish sharoitida hududlarning moliyaviy barqarorligini oshirish masalasi alohida dolzarflik kasb etmoqda. Chunki zamonaviy iqtisodiyotda faqat markaziy

hukumat darajasidagi moliyaviy barqarorlik yetarli emas. Hududlarning o‘z iqtisodiy bazasini kengaytirishi, mahalliy budjetlar daromad manbalarini mustahkamlashi, investitsion loyihalarni mustaqil ilgari surishi va tashqi moliyaviy resurslardan samarali foydalanishi umumiy milliy iqtisodiy o‘shiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu nuqtai nazardan, hududiy kredit reytinglarining shakllanishi mamlakatda fiskal markazlashuvdan bosqichma-bosqich hududiy moliyaviy mas’uliyat va iqtisodiy tashabbuskorlikni kuchaytirishga o‘tish jarayonining muhim ko‘rinishlaridan biri hisoblanadi.

O‘zbekistonda so‘nggi yillarda hududlarning iqtisodiy mustaqilligini kuchaytirish, mahalliy budjetlar daromad bazasini kengaytirish, davlat moliyasini boshqarish tizimini takomillashtirish, investitsion muhitni yaxshilash va xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikni chuqurlashtirish bo‘yicha keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu islohotlar hududlarning moliyaviy imkoniyatlarini kengaytirish, ularning iqtisodiy rivojlanish strategiyalarini aniq maqsadli ko‘rsatkichlar asosida shakllantirish hamda mahalliy darajada investitsiyaviy faollikni oshirishga xizmat qilmoqda. Ayniqsa, hududlarning xalqaro moliya bozorlariga chiqish imkoniyatlarini rivojlantirish, ularning kreditga layoqatliligini baholash va xalqaro investorlar uchun ochiq hamda ishonchli axborot muhitini yaratish bugungi iqtisodiy siyosatning muhim yo‘nalishlaridan biriga aylanmoqda.

Mazkur jarayonda xalqaro reyting agentliklari tomonidan beriladigan kredit reytinglari muhim amaliy ahamiyatga ega. Chunki reyting bahosi hududning moliyaviy holatini tashqi investorlar nuqtai nazaridan baholashga imkon beradi. Investorlar uchun hududning xalqaro kredit reytingiga ega bo‘lishi uning moliyaviy boshqaruvi ma’lum darajada shaffof, tahlil qilingan va xalqaro mezonlar asosida baholanganligini anglatadi. Bu esa investitsiya qarorlarini qabul qilishda ishonch omilini kuchaytiradi. Shu bilan birga, kredit reytingi hududiy boshqaruv organlari uchun ham muhim diagnostik vosita bo‘lib, moliyaviy siyosatdagi kuchli va zaif tomonlarni aniqlash, qarz boshqaruvi tizimini takomillashtirish va budjet intizomini mustahkamlash imkonini beradi.

Farg‘ona viloyati misolida xalqaro kredit reytingining ta’sirini o‘rganish hududiy iqtisodiy rivojlanish, moliyaviy barqarorlik va investitsiyaviy jozibadorlik o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni aniqlash imkonini beradi. Bunda kredit reytingining mahalliy budjet siyosatiga, investitsiya oqimlariga, infratuzilma loyihalarini moliyalashtirish imkoniyatlariga, xususi sektor faolligiga va hududning xalqaro moliya institutlari bilan hamkorligiga qanday ta’sir ko‘rsatishini tahlil qilish muhim hisoblanadi. Ayniqsa, hududiy rivojlanish strategiyalarini xalqaro moliyaviy mezonlar bilan uyg‘unlashtirish O‘zbekiston hududlarining uzoq muddatli raqobatbardoshligini oshirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiqotning dolzarbligi shundan iboratki, O‘zbekistonda hududlarning moliyaviy mustaqilligini kuchaytirish, mahalliy budjetlar barqarorligini ta’minlash va xalqaro investitsiyalarni jalb qilish masalalari iqtisodiy islohotlarning ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qolmoqda. Bu jarayonda xalqaro kredit reytinglari hududlarning moliyaviy salohiyatini obyektiv baholash, investorlarga ishonchli axborot taqdim etish va hududiy boshqaruv sifatini oshirishda muhim vosita sifatida

namoyon bo‘ladi. Farg‘ona viloyatining xalqaro kredit reytingiga ega bo‘lishi esa mazkur yo‘nalishdagi islohotlarning amaliy ifodasi bo‘lib, uning ilmiy va amaliy jihatdan o‘rganilishi muhim ahamiyatga ega.

### **ADABIYOTLAR SHARHI**

Farg‘ona viloyatining iqtisodiy salohiyati, boshqaruv samaradorligi va investitsiyaviy jozibadorligi bo‘yicha ko‘plab tadqiqotchilar tomonidan o‘rganish hamda tadqiqot ishlari olib borilgan.

Jumladan, A. Qorjovov, R.Kamolov, R.Raxmonov tomonidan Farg‘ona mintaqasining iqtisodiy salohiyati, boshqaruv samaradorligi va investitsiya jozibadorligi va unga ta’sir qiluvchi omillar sifatida tabiiy geografik, ijtimoiy demografik, iqtisodiy muxit va davlat siyosati o‘rganilgan, mazkur yo‘nalishda bozor, ishlab chiqarish hamda ijtimoiy infratuzilma ob‘ektlaridan samarali foydalanish muammolari yoritib berilgan, lekin viloyatning xalqaro, jumladan, kredit reyting ko‘rsatkichlarining xorijiy investitsiyalar hajmining oshishi, infratuzilma loyihalarini moliyalashtirish, xususiy sektor faolligining oshishi, hududning tashqi iqtisodiy aloqalarini kengaytirish, xalqaro hamkorlikni kuchaytirish va eksport salohiyatini oshirishga ta’siri etarli darajada o‘rganilmagan.

### **METODOLOGIYA**

Tadqiqotda iqtisodiy tahlil, taqqoslash, tizimli yondashuv va statistik tahlil usullaridan foydalanildi. Axborot manbalari sifatida “Fitch Ratings” xalqaro reyting agentligi ma’lumotlari, O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiy rivojlanish va moliya sohasiga oid me’yoriy-huquqiy hujjatlar, Farg‘ona viloyati iqtisodiy ko‘rsatkichlari, ilmiy adabiyotlar va tahliliy hisobotlardan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida xalqaro reyting ko‘rsatkichlari hamda hudud iqtisodiyotining tarmoqlar bo‘yicha rivojlanish holati o‘zaro bog‘liqlikda tahlil qilindi.

### **TAHLIL VA NATIJALAR**

2026 yil 7 may kuni “Fitch Ratings” xalqaro reyting agentligi tomonidan Farg‘ona viloyatining xorijiy va milliy valyutadagi uzoq muddatli emitent defolt reytingi “BB-” darajasida, prognoz esa “Barqaror” deb baholandi. Bu holat hududning moliyaviy barqarorligi va iqtisodiy salohiyati xalqaro darajada e’tirof etilganini anglatadi.

Bugungi kunda xalqaro moliya bozorlarida faoliyat yurituvchi eng yirik reyting agentliklari qatoriga “Fitch Ratings”, “Moody’s Investors Service” va “Standard & Poor’s” agentliklari kiradi. Ushbu agentliklar “Katta uchlik” sifatida tan olingan bo‘lib, jahon moliya bozorlaridagi reyting xizmatlarining asosiy qismini nazorat qiladi.

Xalqaro reyting agentliklarining asosiy vazifasi mamlakatlar, hududlar, banklar va yirik kompaniyalarning kreditga layoqatlilik darajasini, moliyaviy barqarorligi va qarz majburiyatlarini o‘z vaqtida bajarish qobiliyatini baholash hisoblanadi. Bu reytinglar investorlarga muayyan hudud yoki tashkilotning moliyaviy holati va investitsion xavflari haqida ishonchli ma’lumot beradi.

Kredit reytinglari quyidagi muhim vazifalarni bajaradi:

- investorlar uchun xavf darajasini baholash;
- tashqi investitsiyalarni jalb qilish imkoniyatini oshirish;
- davlat va hududlarning xalqaro moliya bozorlaridagi imijini shakllantirish;
- qarz mablag‘larini arzonroq jalb qilish imkoniyatini yaratish;
- moliyaviy intizom va byudjet shaffofligini ta‘minlash.

Ayniqsa, hududiy reytinglarning joriy qilinishi mahalliy boshqaruv organlarining moliyaviy mas‘uliyatini oshirish, byudjet mablag‘laridan samarali foydalanish va investitsiya loyihalarini kengaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Farg‘ona viloyati O‘zbekistonning aholi zich joylashgan va iqtisodiy jihatdan eng faol hududlaridan biri hisoblanadi. Viloyat mamlakat aholisining taxminan 11 foizini o‘z ichiga qamrab olgan bo‘lib, mehnat resurslari va iste‘mol bozori hajmi jihatidan katta iqtisodiy imkoniyatlarga ega. (1-jadval.)

### 1-jadval

#### Respublika hududlarida yashovchi doimiy axoli soni va mehnat resurslarining 2026 yil 1 aprel holatiga dinamikasi.

Hudud kodi	Hudud nomi	Doimiy aholi soni	Jamiga nisbatan %	Mehnat resurslari soni
<b>1700</b>	<b>O‘zbekiston Respublikasi</b>	<b>38236,7</b>	<b>100,0</b>	<b>20 766,7</b>
1735	Qoraqalpog‘iston Respublikasi	2053,2	5,4	1 146,6
1703	Andijon viloyati	3521,8	9,2	1 883,5
1706	Buxoro viloyati	2107	5,5	1 147,4
1708	Jizzax viloyati	1566,9	4,1	834,9
1710	Qashqadaryo viloyati	3717	9,7	1 897,4
1712	Navoiy viloyati	1111,9	2,9	626,0
1714	Namangan viloyati	3190,8	8,3	1 653,8
1718	Samarqand viloyati	4379,8	11,5	2 262,5
1722	Surxondaryo viloyati	3011	7,9	1 539,5
1724	Sirdaryo viloyati	946,3	2,5	522,5
1727	Toshkent viloyati	3160,7	8,3	1 714,1
1730	Farg‘ona viloyati	4223	11,0	2 216,3
1733	Xorazm viloyati	2069,2	5,4	1 137,7
1726	Toshkent shayri	3178.1	8,3	2184,6

Viloyat iqtisodiyoti tarmoqlar kesimida diversifikatsiyalashgan bo‘lib, qishloq xo‘jaligi, sanoat, xizmat ko‘rsatish va tadbirkorlik sohalari asosiy drayver vazifasini

bajaradi.

Farg‘ona viloyati mamlakatning muhim sanoat markazlaridan biri hisoblanadi. Hududda neft-kimyoy, to‘qimachilik, oziq-ovqat, qurilish materiallari va engil sanoat tarmoqlari rivojlangan.

Ayniqsa, Farg‘ona neftni qayta ishlash zavodi, kimyoy sanoati korxonalari hamda to‘qimachilik klasterlari hudud iqtisodiyotining muhim tayanchi hisoblanadi. Sanoat tarmoqlarining rivojlanishi qo‘shimcha ish o‘rinlari yaratish, eksport hajmini oshirish va mahalliy byudjet daromadlarini ko‘paytirish imkonini bermoqda. Investitsiya va tashqi savdo sohasida ham sezilarli o‘shishga erishildi. Viloyatda 26 ta yirik, 357 ta o‘rta va kichik investitsiya loyihalari ishga tushirilib, salkam 3 milliard dollar xorijiy investitsiya o‘zlashtirildi. Eksport hajmi izchil oshdi, eksportchi korxonalarining soni kengaydi. Birgina meva-sabzavot eksporti 403 million dollarga etdi. Tomorqachilik va ixcham issiqxonalar orqali minglab xonadonlar barqaror qo‘shimcha daromad manbaiga ega bo‘ldi. 2-jadval

## 2-jadval

### Farg‘ona viloyatining 2026 yil 1 yanvar xolatiga makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari1 (2025-yil yanvar dekabr)

	Mrd. so‘m	2025-yil yanvar-dekabr nisbatan % hisobida
Yalpi hududiy mahsulot	111 305,3	108,1
Sanoat mahsuloti	59 364,4	107,3
Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lari	49 733,5	105,6
Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar	32 466,8	145,2
Qurilish ishlari	19 157,0	117,5
Yuk aylanmasi (mln. t/km)	4 642,7	108,7
Yo‘lovchi aylanmasi (mln. yo‘lovchi/km)	16 601,0	99,8
Ko‘rsatilgan bozor xizmatlari, jami	71 765,9	114,4
Chakana savdo tovar aylanmasi	42 194,6	112,1
Tashqi savdo aylanmasi, (mln. AQSh doll.) <sup>25</sup>	2 668,4	122,9
Eksport	1 082,1	129,4
Import	1 586,3	118,8

So‘nggi yillarda hududda kichik sanoat zonalari, erkin iqtisodiy zonalar va innovatsion ishlab chiqarish markazlarini tashkil etishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Bu esa xususiy sektorning faolligini oshirishga xizmat qilmoqda.

<sup>25</sup> O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Bojxona qo‘mitasining aniqlashtirilgan ma‘lumotlarini hisobga olgan holda

Farg‘ona viloyati agrar sohada ham muhim o‘ringa ega. Hududda paxtachilik, g‘allachilik, bog‘dorchilik, sabzavotchilik va chorvachilik keng rivojlangan.

Ayniqsa, meva-sabzavot mahsulotlarini qayta ishlash va eksport qilish yo‘nalishida katta imkoniyatlar mavjud. Viloyatning iqlim sharoiti va suv resurslari qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish uchun qulay muhit yaratadi.

So‘nggi yillarda agroklastlar faoliyatini yo‘lga qo‘yish, intensiv bog‘lar tashkil etish va qishloq xo‘jaligini raqamlashtirish bo‘yicha qator ishlar amalga oshirildi. Bu esa mahsulot hajmi va sifatini oshirishga ijobiy ta‘sir ko‘rsatmoqda.

Farg‘ona viloyatida xizmat ko‘rsatish sohasi ham jadal rivojlanmoqda. Savdo, transport, logistika, axborot texnologiyalari va turizm xizmatlari iqtisodiyotning muhim segmentiga aylanib bormoqda.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha davlat dasturlari natijasida minglab yangi sub‘ektlar tashkil etildi. Bu esa aholi bandligini ta‘minlash va daromadlarini oshirishda muhim omil bo‘lmoqda.  
(3- jadval)

**3-jadval**

**Farg‘ona viloyati sanoatining asosiy ko‘rsatkichlari hududlar kesimida**

	<b>Hajmi, mlrd so‘m</b>	<b>Fizik hajm indeksi, % da</b>
<b>Farg‘ona viloyati</b>	<b>59 364,4</b>	<b>107,3</b>
<i>shahar tumanlar:</i>		
Farg‘ona shahri	12 666,6	107,0
Qo‘qon shahri	9 410,4	109,4
Quvasoy shahri	2 211,6	108,4
Marg‘ilon shahri	2 458,9	109,2
Oltiariq tumani	1 103,8	109,1
Qo‘sh tepa tumani	3 074,0	106,8
Bag‘dod tumani	1 211,1	106,7
Buvayda tumani	1 022,3	107,6
Beshariq tumani	1 668,4	109,2
Quva tumani	930,4	105,2
Uchko‘prik tumani	4 906,5	107,2
Rishton tumani	660,4	110,7
So‘x tumani	192,9	110,9
Toshloq tumani	2 188,1	107,8
O‘zbekiston tumani	1 513,6	109,1
Farg‘ona tumani	1 868,6	109,8
Dang‘ara tumani	1 560,0	108,3
Furqat tumani	878,2	105,2
Yozyovon tumani	478,7	108,5

Dastlabki ma‘lumotlar bo‘yicha 2025-yilning yanvar-dekabr oylarida viloyat korxonalaridan **59 364,4** mlrd so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan

bo‘lib, 2024- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi 107,3 % ni tashkil etdi.

### MUXOKAMA

“Fitch Ratings” xalqaro agentligi tomonidan Farg‘ona viloyatiga “BB-/Barqaror” reytingi berilishi hududning moliyaviy barqarorligi xalqaro mezonlar asosida baholanganini anglatadi.

“BB-” reytingi investitsion darajadan biroz past bo‘lsa-da, hududning moliyaviy majburiyatlarini bajarish imkoniyati barqaror ekanini ko‘rsatadi. “Barqaror” prognoz esa yaqin kelajakda reyting pasayishi ehtimoli past ekanini anglatadi. Xalqaro agentlik xulosalariga ko‘ra, Farg‘ona viloyatida:

- byudjet intizomi saqlanib kelmoqda;
- qarz yuki nisbatan past darajada;
- moliyaviy boshqaruv tizimi samarali;
- iqtisodiy faollik yuqori;
- o‘rta va uzoq muddatli fiskal salohiyat barqaror hisoblanadi.

Shuningdek, agentlik tomonidan 2030 yilga qadar hududning qarzni qoplash koeffitsienti xavfsiz darajada saqlanishi prognoz qilingan. Bu ko‘rsatkichlar hududning tashqi moliya bozorlarida ishonchli sub’ekt sifatida tan olinishiga xizmat qiladi.

Hududlarga xalqaro kredit reytingi berilishi investitsion muhitni yaxshilashda muhim omil hisoblanadi. Investorlar uchun reyting hududning iqtisodiy holati, moliyaviy intizomi va xavf darajasini baholovchi asosiy mezonlardan biri hisoblanadi.

### XULOSA

Farg‘ona viloyatiga berilgan “BB- / Barqaror” reytingi quyidagi ijobiy natijalarni keltirib chiqarishi mumkin:

Xorijiy investitsiyalar hajmining oshishi-xalqaro reytingning mavjudligi xorijiy investorlar uchun muhim ishonch omili bo‘lib xizmat qiladi. Bu esa sanoat, infratuzilma, energetika va xizmat ko‘rsatish sohalariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar jalb qilish imkoniyatini oshiradi.

Infratuzilma loyihalarini moliyalashtirish-reyting mavjudligi hududga xalqaro moliya institutlari va banklardan imtiyozli kreditlar jalb qilish imkoniyatini yaratadi. Bu esa yo‘llar, muhandislik tarmoqlari, ijtimoiy ob’ektlar va sanoat infratuzilmasini modernizatsiya qilishga xizmat qiladi.

Xususiy sektor faolligining oshishi-moliyaviy barqarorlik xususiy biznes uchun ham qulay muhit yaratadi. Bank kreditlari hajmining ortishi, biznes muhitining yaxshilanishi va investitsion xavflarning pasayishi tadbirkorlik rivojiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Xalqaro imijning mustahkamlanishi-Farg‘ona viloyatining xalqaro reytingga ega bo‘lishi hududning tashqi iqtisodiy aloqalarini kengaytirish, xalqaro hamkorlikni kuchaytirish va eksport salohiyatini oshirishda muhim ahamiyatga ega.

Xulosa qilib aytganda, Farg‘ona viloyatining xalqaro reytingga ega bo‘lishi — bu shunchaki moliyaviy baholash emas, balki hududning iqtisodiy

salohiyati, boshqaruv samaradorligi va investitsiyaviy jozibadorligi xalqaro miqyosda e'tirof etilayotganining muhim ko'rsatkichidir. Bunday reyting viloyatning ichki va tashqi iqtisodiy munosabatlardagi ishonch darajasini oshirib, uni xalqaro moliya bozorida raqobatbardosh hududlar qatoriga olib chiqadi.

Eng muhimi, xalqaro reyting Farg'ona viloyatiga uzoq muddatli strategik rivojlanish imkoniyatlarini ochib beradi. Avvalo, bu xorijiy investorlar uchun hududning barqaror va ishonchli ekanini anglatadi. Shu sababli, Farg'ona viloyatiga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimi ko'payishi mumkin. Bu esa sanoat, energetika, kimyo, neftni qayta ishlash, qishloq xo'jaligi, logistika va xizmat ko'rsatish sohalarida yirik loyihalar amalga oshirilishiga zamin yaratadi.

Shu bilan birga, xalqaro reyting viloyatning tashqi iqtisodiy aloqalarini kengaytirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki xalqaro moliya institutlari, banklar va donor tashkilotlar yuqori reytingga ega hududlar bilan hamkorlik qilishga ko'proq qiziqadi. Natijada Farg'ona viloyati xalqaro kreditlar, grantlar va texnik yordam dasturlarini jalb qilish imkoniyatini kengaytiradi. Bu mablag'lar esa yo'llar, elektr tarmoqlari, ichimlik suvi, transport, raqamli infratuzilma va ijtimoiy ob'ektlarni modernizatsiya qilishga xizmat qiladi.

Iqtisodiy o'sish esa o'z navbatida aholi turmush darajasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Yangi investitsiya loyihalari orqali minglab yangi ish o'rinlari yaratiladi, aholi daromadlari oshadi, tadbirkorlik muhiti yaxshilanadi. Ayniqsa, yoshlar va xotin-qizlar bandligini ta'minlash imkoniyatlari kengayadi. Bu esa ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlab, kambag'allik darajasini qisqartirishga yordam beradi.

Bundan tashqari, xalqaro reyting hudud boshqaruvi samaradorligini ham oshirishga turtki beradi. Chunki reytingni saqlab qolish va yaxshilash uchun mahalliy hokimiyat moliyaviy intizom, ochiqlik, hisobdorlik va samarali boshqaruv tamoyillariga yanada ko'proq e'tibor qaratadi. Bu esa davlat xizmatlari sifati yaxshilanishiga va aholi ishonchining ortishiga olib keladi.

Kelgusida Farg'ona viloyatining xalqaro reytingini mustahkamlab borish orqali uni nafaqat O'zbekistonda, balki Markaziy Osiyodagi yirik sanoat va investitsiya markazlaridan biriga aylantirish imkoniyati paydo bo'ladi. Chunki viloyatning qulay geografik joylashuvi, aholi zichligi, mehnat resurslari va sanoat salohiyati xalqaro reyting bilan uyg'unlashganda u tashqi bozorlar uchun yanada jozibador hududga aylanadi.

Umuman olganda, xalqaro reyting Farg'ona viloyati uchun iqtisodiy taraqqiyot, investitsiya jalb qilish, eksport salohiyati, infratuzilma rivoji va aholi farovonligini oshirishga xizmat qiluvchi strategik omil hisoblanadi. Bu esa viloyatning uzoq muddatli barqaror rivojlanishi va xalqaro iqtisodiy integratsiyasini ta'minlashda muhim qadam bo'lib xizmat qiladi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Fitch Ratings. International Public Finance Rating Methodology.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga oid farmon va qarorlari.
3. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari

4. Raxmonov.Z Farg‘ona mintaqasi eksport salohiyati va unga ta’sir qiluvchi omillar. Ilmiy maqola. Iqtisod va moliya / Ekonomika i finansы №5, 2011
5. Rahmonov R.N. Farg‘ona mintaqasida kimyo sanoatining eksportdagi o‘rni Ilmiy-amaliy konferentsiya materiallari to‘plami. T: 2009.
6. Musgrave R.A., Musgrave P.B. Public Finance in Theory and Practice.
7. World Bank. Subnational Creditworthiness and Local Government Finance Reports.